



THE SOCIO-CULTURAL EVOLUTION OF ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

Feruzbek Kilichev

Doctor of Philosophy (PhD)

National University of Uzbekistan

E-mail: qilichevferuzbek@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, ecological consciousness, socio-cultural evolution, environmental risk, sustainable development.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article examines the socio-cultural evolution of ecological consciousness in the context of globalization. The study highlights the global nature of environmental risks, the cultural universalization of ecological values, and the formation of ecological awareness through educational and institutional mechanisms. Ethical, cultural, and educational dimensions of ecological consciousness, as well as its role in societal development, are conceptually analyzed.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA EKOLOGIK ONGNING IJTIMOYIY-MADANIY EVOLYUTSIYASI

Feruzbek Qilichev

O'zbekiston Milliy Universiteti falsafa doktori, (PhD)

E-mail: qilichevferuzbek@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: globallashuv, ekologik ong, ijtimoiy-madaniy evolyutsiya, ekologik xavf, barqaror rivojlanish.

Annotatsiya: Ushbu maqola globallashuv sharoitida ekologik ongning ijtimoiy-madaniy evolyutsiyasini tahlil qiladi. Maqolada ekologik xavflarning global xarakteri, ekologik ongning madaniy universallasuvi va institutlar orqali shakllanish jarayonlarini yoritadi. Maqolada ekologik ongning axloqiy, madaniy va ta'limiy aspektlari hamda uning jamiyat

taraqqiyotidagi roli konseptual asosda tahlil
qilinadi.

СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ ЭВОЛЮЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Ферузбек Киличев

Доктор философии (PhD)

Национальный университет Узбекистана

E-mail: gilichevferuzbek@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, экологическое сознание, социально-культурная эволюция, экологический риск, устойчивое развитие.

Аннотация: В статье анализируется социально-культурная эволюция экологического сознания в условиях глобализации. Исследование освещает глобальный характер экологических рисков, универсализацию экологических ценностей и формирование экологического сознания через образовательные и институциональные механизмы. Рассматриваются этические, культурные и образовательные аспекты экологического сознания и его роль в развитии общества.

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi insoniyat hayot faoliyatining barcha sohalariga tizimli ta'sir ko'rsatib, Atrof-muhit muammolarining transmilliy va sivilizatsion xarakter kasb etishi ekologik ongning shakllanishi va rivojlanishini sifat jihatidan yangi ijtimoiy-madaniy bosqichga olib chiqdi. Xususan, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xilliklarning kundan kunga kamayib borishi, suv va atmosfera resurslarining tanqisligi kabi global ekologik muammolar insoniyatdan faqat texnologik va institutsional choralarni emas, balki ekologik ongning ijtimoiy-madaniy transformatsiyani ham talab etmoqda.

Ekologik ong jamiyatning tabiatga bo'lgan munosabatini belgilovchi muhim ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'lib, u shaxsning ekologik bilimlari, qadriyatlar tizimi, axloqiy me'yorlari hamda ekologik mas'uliyatga asoslangan amaliy xatti-harakatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Globallashuv sharoitida ekologik ong milliy chegaralar doirasidan chiqib, umuminsoniy madaniy hodisa sifatida shakllanmoqda hamda global ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Bu jarayon ekologik ongning ijtimoiy-madaniy mazmunini yanada, uni zamonaviy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirmoqda. Shu bois ekologik ongning globallashuv sharoitidagi ijtimoiy-madaniy evolyutsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, uning shakllanish mexanizmlari va rivojlanish bosqichlarini aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Method:

Mazkur maqolada ekologik ongning globallashuv sharoitidagi ijtimoiy-madaniy evolyutsiyasini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil, tizimli yondashuv va taqqoslash metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar ekologik ongning madaniy transformatsiyasini kompleks va izchil yoritishga xizmat qildi.

I.A.Sosunovanning fikriga kora, ekologik ongni o'rganish zarurati quyidagilar bilan bog'liq sanaladi:

- Ekologik ong - XIX asr oxiridan boshlab jamoatchilik xarakati sifatida o'rganila boshlangan;

- Ekologik ong - insonning tabiat haqidagi savolga javob qidirishi bilan bog'liq;

- Ekologik ong bu - inson ongining evolyusiyasi natijasi. Unda shaxs, oila, etnos, davlat, siyosat, sayyora, makon kabi tushunchalarda aks etgan V.V.Kalitanning ta'kidicha, inson tabiatning ajralmas qismidir, tabiatga qarshi bo'lmaslik kerak, unga zarar yetkazmaslik kerak, uni doim asrab-avaylash lozim. Tabiat vakillari bo'lgan o'simliklar, hayvonlar, hashoratlar ham yashashda shaxs kabi to'la huquqli sub'ektlardir. V.R.Arseniev insonning tabiatdan uzoqlashish sabablarini quyidagicha tasvirlaydi:

- Insonning va tabiat o'rtasidagi hamkorlikning buzilishi;

- Tabiatni keragidan ortiq o'zlashtirish;

- Tabiatni ilohiylashtirish;

- Atrof-muhitni tabiiy yaratilgan va shundayligicha qolishi kerak qabilida munosabatda bo'lish va hokazo.

Shuningdek, U. Bek globallashuv sharoitida ekologik xavflarning ijtimoiy mohiyatini quyidagicha ta'kidlaydi: "Zamonaviy jamiyatda ekologik xavflar lokal chegaralar bilan cheklanmaydi, ular global xarakter kasb etib, insoniyatning umumiy taqdiriga aylanadi" Darhaqiqat, U. Bekning globallashuv sharoitida ekologik xavflarning ijtimoiy mohiyati haqidagi qarashlari zamonaviy jamiyatning "xavf jamiyati" konsepsiyasiga asoslanadi. Uning fikricha, ekologik xavflarning global xarakter kasb etishi ularni individual yoki milliy muammolar darajasidan chiqarib, umuminsoniy mas'uliyat maydoniga olib chiqadi. Bu yondashuv ekologik ongning ijtimoiylashuvi va madaniy universallashtirish jarayonini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. U. Bek ekologik xavflarni faqat tabiiy hodisa emas, balki ijtimoiy konstruktsiya sifatida talqin qilishi orqali ekologik ongning jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyatini ochib bergan. A. Giddens globallashuv va ong transformatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni shunday izohlaydi: "Globallashuv faqat iqtisodiy jarayon emas, balki ijtimoiy ong va madaniy tasavvurlarni tubdan o'zgartiruvchi kuchdir" A. Giddensning globallashuv va ong transformatsiyasi haqidagi qarashlari ekologik ong evolyutsiyasini tushuntirishda muhim

metodologik ahamiyatga ega. U globallashuvni ijtimoiy ong va madaniy tasavvurlarni tubdan o'zgartiruvchi jarayon sifatida baholaydi. Bu yondashuv ekologik muammolarning inson ongida yangi ma'nolar kasb etishini, ekologik ongning individual darajadan global madaniy hodisaga aylanishini izohlash imkonini beradi. Giddens nazariyasi ekologik ongning zamonaviy identifikatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. H. Jonas ekologik mas'uliyatning axloqiy asosiga urg'u berib yozadi: "Texnologik taraqqiyot sharoitida insoniyat o'z harakatlari oqibatlarini uchun oldingidan ham kattaroq axloqiy mas'uliyatni zimmasiga oladi" H. Jonas ekologik mas'uliyatning axloqiy asoslarini chuqur falsafiy jihatdan tahlil qiladi. Uning qarashlariga ko'ra, texnologik taraqqiyot insoniyat zimmasiga kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni yuklaydi. Bu fikr ekologik ongni faqat bilimlar majmui sifatida emas, balki axloqiy majburiyat va mas'uliyat kategoriyasi sifatida talqin qilishga imkon beradi. Jonas konsepsiyasi ekologik ongning normativ-axloqiy poydevorini mustahkamlab, barqaror rivojlanish g'oyasining falsafiy asosini yaratadi. F. Kapra ekologik ongning tizimli xarakterini quyidagicha tavsiflaydi: "Tabiatni anglashda parchalangan tafakkurdan voz kechib, tizimli va yaxlit ekologik ongga o'tish zamonaviy sivilizatsiyaning muhim vazifasidir". F. Kapra ekologik ongni tizimli tafakkur bilan bog'laydi. Uning fikricha, tabiatni parchalangan holda anglash ekologik inqirozning asosiy sabablaridan biridir. Kapra ilgari surgan tizimli va yaxlit yondashuv ekologik ongning ilmiy va madaniy transformatsiyasini anglatadi. Ushbu qarash ekologik ong evolyutsiyasini postklassik ilmiy paradigmaning muhim unsuri sifatida talqin qilish imkonini beradi. (Capra, 1996). E. Leff ekologik ong va madaniyat o'rtasidagi aloqani ta'kidlab shunday yozadi: "Ekologik muammolarni hal etish texnik masala emas, balki madaniy ratsionallikni qayta shakllantirish jarayonidir" . E. Leff ekologik muammolarni hal etishda madaniy ratsionallikni qayta shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ekologik inqiroz texnologik emas, balki madaniy va epistemologik muammo hisoblanadi. Bu yondashuv ekologik ongni jamiyatning qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi va ekologik madaniyatni ijtimoiy transformatsiyaning muhim omili sifatida asoslaydi. UNESCO hujjatlarida ekologik ongning ta'limiy ahamiyati quyidagicha ifodalanadi: "Barqaror rivojlanish uchun ta'lim ekologik ongni shakllantirishning asosiy ijtimoiy-madaniy mexanizmi hisoblanadi". UNESCO hujjatlarida ekologik ongning ta'limiy ahamiyatiga berilgan baho ekologik ongni shakllantirishning institutsional mexanizmlarini yoritadi. Ta'lim ekologik ongni ijtimoiy-madaniy darajada mustahkamlovchi asosiy vosita sifatida e'tirof etiladi. Bu yondashuv ekologik ongning uzluksiz ta'lim orqali jamiyatda barqaror qadriyatga aylanishini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

A. Ness ekologik ongning falsafiy chuqurligini quyidagicha izohlaydi:

"Ekologik ong insonning tabiat bilan munosabatini instrumental emas, balki axloqiy va ekzistensial darajada anglashni talab etadi" . A. Nessning chuqur ekologiya (deep ecology)

konsepsiyasi ekologik ongning falsafiy va ekzistensial mohiyatini ochib beradi. U inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni instrumental yondashuvdan chiqarib, axloqiy va ontologik darajada qayta anglash zarurligini asoslaydi. A. Ness qarashlari ekologik ongni shaxsiy va madaniy identifikatsiyaning ajralmas qismi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Umumiy xulosa sifatida, mazkur olimlarning qarashlari ekologik ongning globallashuv sharoitida ijtimoiy-madaniy evolyutsiyasini, uning axloqiy, madaniy va institutsional o'lchamlarini kompleks tarzda ochib beradi. Ushbu nazariy yondashuvlar ekologik ongni zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-madaniy resurs sifatida asoslash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sosunova I.A. Environmental safety as the basis for sustainable development of regions of the Eurasian space in conditions of uncertainty and risks / I.A. Sosunova; Edited by I.A. Groshevoy // Social security in the Eurasian space: Materials of the II International Scientific Conference, Moscow-Tyumen, December 16, 2022. M.-Tyumen, 2023. P. 21–26
2. Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. — London: Sage Publications, 1992. — 280 p.
3. Giddens A. The Consequences of Modernity. — Cambridge: Polity Press, 1990. — 240 p.
4. Jonas H. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. — Chicago: University of Chicago Press, 1984. — 320 p.
5. Capra F. The Web of Life: A New Scientific Understanding of Living Systems. — New York: Anchor Books, 1996. — 400 p.
6. Leff E. Environmental Rationality: Reimagining Development. — Oxford: Oxford University Press, 2004. — 350 p.
7. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. — Paris: UNESCO, 2017. — 60 p.
8. Ness A. Ecology, Community and Lifestyle. — Cambridge: Cambridge University Press, 1989. — 280 p.